

**POST-PANDEMIYA DAVRIDA IMMUNIZATSIYA SIYOSATINI
IJTIMOIY QABUL QILISH VA ANTI-VAKS KAYFIYATLARGA
QARSHI KURASHDA BIRLAMCHI TIBBIY YORDAM TIZIMINING
ROLI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI**

Ro‘zagul Kazakova

PhD mustaqil izlanuvchi

Email: [ruzagulkazakova@gmail.com]

Tayanch so‘zlar:Post-pandemiya, immunizatsiya siyosati, ijtimoiy qabul birlamchi tibbiy yordam, anti-vaks kayfiyatlar, sog‘liqni saqlash tizimi, O‘zbekiston tajribasi, profilaktika, ishonch

Annotatsiya:COVID-19 pandemiyasi global sog‘liqni saqlash tizimlarining zaif tomonlarini ochib berdi, ayniqsa immunizatsiya siyosatini amalga oshirishda ijtimoiy qarshiliklar, ishonchsizlik va “anti-vaks” kayfiyatlarning kuchaygani ko‘zga tashlandi. Ushbu tezisda O‘zbekistonda post-pandemiya davrida birlamchi tibbiy yordam tizimining aholi orasida emlashga bo‘lgan ijtimoiy qabulni oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Xalqaro tajribalar – ayniqsa Janubiy Koreya, Kanada va Ruandadagi muvaffaqiyatli yondashuvlar bilan solishtirilib, O‘zbekiston uchun moslashtirilgan innovatsion model ishlab chiqiladi. Taklif etilayotgan model jamiyat ishonchini tiklash, sog‘liqni saqlash xodimlarining kommunikativ salohiyatini oshirish va mahalliy darajada sog‘lom axborot muhitini shakllantirishni o‘z ichiga oladi.COVID-19 pandemiyasi davrida emlash jarayonlari tibbiyotning eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Biroq, pandemiyadan keyingi davrda emlash siyosatiga bo‘lgan ishonch pasaygan, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan noto‘g‘ri ma’lumotlar natijasida anti-vaks kayfiyatlar kuchaydi. Ushbu holat birlamchi tibbiy yordam tizimi orqali ijobiy o‘zgarish kiritishni talab etmoqda.COVID-19 pandemiyasi insoniyat tarixidagi eng murakkab sog‘liqni saqlash inqirozlaridan biri bo‘lib, global darajada immunizatsiya siyosatining dolzarbligini yana bir bor isbotladi. Vaksinalar

pandemiyaning oldini olishda hal qiluvchi rol o'ynagan bo'lsa-da, ularni ijtimoiy qabul qilish masalasi ko'plab mamlakatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham dolzarb muammoga aylandi. Post-pandemiya davrida anti-vaks (vaksinaga qarshi) kayfiyatlarning kuchayishi, asossiz vahima, yolg'on ma'lumotlar tarqalishi va sog'liqni saqlash tizimiga nisbatan ishonchsizlik immunizatsiya siyosatining samaradorligiga jiddiy putur yetkazdi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan noto'g'ri axborotlar ko'plab fuqarolarning vaksinatsiyadan bosh tortishiga olib keldi. Shu sharoitda birlamchi tibbiy yordam (BTY) tizimi – oilaviy shifokorlar, poliklinika va qishloq vrachlik punktlari orqali aholiga yaqin bo'lgan tibbiyot xodimlari – vaksina siyosatini tushuntirish, aholiga to'g'ri ma'lumot yetkazish va ishonchni shakllantirishda asosiy vosita bo'lishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi: Post-pandemiya davrida O'zbekistonda immunizatsiya siyosatining ijtimoiy qabul darajasini tahlil qilish

Anti-vaks kayfiyatlarning shakllanish omillarini aniqlash

Birlamchi tibbiy yordam tizimining ushbu jarayonda tutgan o'rnini baholash

Xalqaro tajribalar asosida O'zbekistonga mos innovatsion model ishlab chiqish

Materiallar va tadqiqot usullari: Mixt metodologiya: statistik ma'lumotlar tahlili (2019–2024 yillar oralig'ida), tibbiyot xodimlari va aholining intervyulari, xalqaro ilmiy maqolalar sharhi;

Sifatli va miqdoriy tahlil: BTY tizimining aholiga ta'sir qilish mexanizmlari, ishonch darajasi, vaksina haqida axborot tarqatish kanallari o'rganildi;

Milliy va xalqaro siyosat tahlili: JSST va UNICEF tomonidan e'lon qilingan yo'riqnomalar, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining normativ hujjatlari.

Miqdoriy tahlil: 2019–2024-yillar oralig'ida emlanish darajalari va ijtimoiy so'rovnomalar tahlili

Sifat jihatidan tahlil: Aholi va tibbiyot xodimlari bilan yarim tuzilgan

intervyular

Taqqoslama tahlil: Janubiy Koreya, Kanada va Ruanda kabi davlatlarning muvaffaqiyatli immunizatsiya siyosatlari o'rganildi

Hujjatlar tahlili: O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hujjatlari, JSST ko'rsatmalari, UNICEF hisobotlari

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda BTY tizimi aholining sog'liq bo'yicha birinchi murojaat nuqtasi bo'lishiga qaramasdan, vaksina bo'yicha yetarli bilim va kommunikatsion ko'nikmalarga ega emas. Hududiy farqlar mavjud: shaharlarda aholining vaksina borasidagi bilim darajasi yuqori bo'lsa-da, chekka hududlarda vaksina haqida noto'g'ri tushunchalar keng tarqalgan. Ilg'or davlatlar tajribasidan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari surildi:

Birlamchi Tibbiy Yordam(BTY) xodimlari uchun doimiy malaka oshirish kurslarini joriy etish, ayniqsa, "risk kommunikatsiyasi" va "sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish" yo'nalishlarida; Mahalliy yetakchilar, ijtimoiy faollar, imomlar va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda vaksina bo'yicha tushuntirish ishlarini kuchaytirish; Ushbu takliflar O'zbekistonda sog'liqni saqlashning profilaktik yo'nalishini kuchaytirishga xizmat qiladi va kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan sog'liqni saqlash inqirozlariga nisbatan tayyorgarlik darajasini oshiradi. Birlamchi tibbiy yordam muassasalari aholining ishonchli manbai bo'lib, emlash bo'yicha yetarli kommunikatsion tayyorgarlikka ega emasligi aniqlandi. Anti-vaks kayfiyatlar ko'pincha ijtimoiy tarmoqlardagi yolg'on axborot va tarixiy salbiy tajribalarga asoslangan. Mahalliy darajadagi tibbiyot xodimlari emlash bo'yicha yetarli ma'lumotga ega bo'lsa-da, samarali kommunikatsiya vositalari yetarli emas

Xulosa: O'zbekistonda post-pandemiya sharoitida emlash siyosatini ijtimoiy qabul qilish darajasini oshirish uchun mahalliy darajada ishonchli axborot kanallari yaratish, PHC xodimlarining o'qitilishini kuchaytirish va sog'liqni saqlash tizimi islohotlarida profilaktik yondashuvga ustuvorlik berish muhimdir. Xalqaro tajribalar buni tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. JSST (2023). Post-pandemiya immunizatsiya strategiyasi
2. UNICEF (2022). O'zbekistonda bolalar va emlash siyosati
3. Ministry of Health of Rwanda (2021). Community-Based Vaccination Programs
4. MacDonald, N.E. (2015). Vaksinatsiyaga nisbatan ikkilanish sabablari. Vaccine.
5. Sog'liqni saqlash vazirligi (2023). O'zbekistonda profilaktika tizimi va innovatsiyalar